

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

TEXNOLOGIYA TA'LIMINI O'QITISHDAGI BUGUNGI KUN MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Ruzmetova Zuxra Shavkatovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“Pedagogika va aniq fanlar” kafedrasi stajor-o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada texnologiya ta'limi fanini o'qitishdagi dolzarb muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va davlat siyosati asosida ularni hal qilish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Muammolar texnik, metodik, tashkiliy va motivatsion jihatlar bo'yicha guruhlab yoritilgan. Shuningdek, texnologik ta'limni zamonaviylashtirishga doir qonun va qarorlar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya fani, o'quv jarayoni, raqamli ta'lim, pedagogik kompetensiya, o'quv dasturi, normativ-huquqiy asoslar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно проанализированы современные проблемы в преподавании технологического образования, причины их возникновения и пути их решения на основе государственной политики. Проблемы сгруппированы в технические, методические, организационные и мотивационные аспекты. Также разработаны предложения на основе законов и постановлений по модернизации технологического образования.

Ключевые слова: технология, образовательный процесс, цифровое образование, педагогическая компетентность, учебная программа, нормативно-правовая база.

ANNOTATION

This article scientifically analyzes the current problems in teaching technology education, their causes and ways to solve them based on state policy. The problems are grouped into technical, methodological, organizational and motivational aspects. Also, proposals are developed based on laws and resolutions on the modernization of technology education.

Keywords: technology, educational process, digital education, pedagogical competence, curriculum, regulatory and legal framework.

KIRISH.

Texnologiya fani bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning texnik tafakkuri, amaliy ko'nikmalari va kasbiy qiziqishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Lekin bu fanni zamonaviy talablar asosida o'qitishda bir qator muammolar mavjud. Ular nafaqat moddiy-texnik yoki kadrlar bilan bog'liq, balki o'quvchi motivatsiyasi, raqamli ta'limga moslashuv va me'yoriy-huquqiy asoslarning amaliyotda qo'llanilish darajasi bilan ham bevosita bog'liq.

ASOSIY QISM

Texnologik ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator muhim hujjatlar mavjud bo'lib, bular - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi PF-5712-sonli kasb-hunar ta'limini takomillashtirish to'g'risidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi PQ-4699 "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021

yildagi PQ–5252 professional ta’limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish to’g’risidagi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining texnologiya fanini modernizatsiyalashga qaratilgan 2022 yildagi 289-sonli qarori, Xalq ta’limi vazirligining 2023 yildagi texnologiya faniga oid fanni yangilashga yo’naltirilgan o’quv dasturi mavzuning naqadar muhim ekanligini dalilidir. Ushbu hujjatlar asosida texnologiya fani ustaxonalarini jihozlash, yangi darsliklarni ishlab chiqish, o’qituvchilarni zamonaviy kurslarda tayyorlash, fan mazmunini raqamli platformalarga moslashtirish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda texnologiya ta’limini o’qitishdagi dolzarb muammolar sifatida biz maktab va oliygohlarda moddiy-texnik ta’minotning zaifligini keltirishimiz mumkin, ya’ni ko’plab maktablarda texnologik jihozlar (tokarlik stanoklari, 3D printerlar, grafik planshetlar) mavjud emas. O’quv ustaxonalari va laboratoriyalar zamonaviy mehnat sharoitlariga javob bermaydi. Bu holat darslarni faqat nazariy ko’rinishda o’tishga majbur qiladi. Nazariy bilimlar esa amaliyotda qo’llanilishini talab etadi.

Bundan tashqari metodik ta’minot va o’quv dasturlarining eskirganligi - o’quv dasturlarida zamonaviy texnologiyalar (robototexnika, dizayn, muhandislik asoslari) yetarlicha aks etmagan. Vaholanki texnologiya mashg’ulotlarida zamon bilan hamnafas bo’lish maqsadida darsliklarda robotlar yasash va ularni tuzilishiga oid ma’lumotlar berib borilishi ko’zlangan. Darslik va metodik qo’llanmalar zamonaviy interaktiv yondashuvlardan yiroq. Faoliyatga asoslangan, loyiha va muammo yechish metodlari kam qo’llaniladi.

O’qituvchilarning malaka darajasiga ham e’tibor qaratish muhim albatta. Texnologiya fani o’qituvchilari orasida raqamli savodxonligi past bo’lganlar ko’p. AutoCAD, TinkerCAD, SketchUp kabi dasturlarni bilmaslik, zamonaviy usullarda dars o’tishdagi sustlik kuzatiladi. Malaka oshirish kurslari yetarlicha amaliy emas.

O’quvchilarning dars jarayonida past motivatsiya bilan qatnashishlari. O’quvchilar texnologiya darslarini hayot bilan bog’lamaydi. Amaliy natija, mustaqil loyiha, tanlovlar va real ishlab chiqarishga yaqin tajribalar yo’qligi sababli qiziqish sust. Bu esa fanning samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi.

Ta’lim tizimida hamkorlik yetishmasligi ham fanning dolzarb muammolaridan biridir. Texnologiya ta’limida ishlab chiqarish korxonalari, kasb-hunar kollejlari bilan integratsiya mavjud emas. O’quvchilar real ishlab chiqarish muhiti bilan tanishmaydi.

TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan mummolarga biz quyidagicha yechimlar berishni taklif qilamiz, ya’ni

- har bir maktabda zamonaviy texnologiya laboratoriyasi yoki mini ishlab chiqarish ustaxonalarini yaratish;
- O’qituvchilar uchun amaliy raqamli kurslarni joriy etish (AutoCAD, 3D printing, Arduino asoslari);
- Fan bo’yicha o’quvchilarning loyiha va ijodiy ishlarini baholash tizimini ishlab chiqish;
- Ishlab chiqarish bilan hamkorlikda seminarlar va master-klasslar tashkil qilish;
- Elektron darsliklar, video qo’llanmalar, onlayn simulyatsiyalar platformasini yaratish.

XULOSA

Texnologiya fani nafaqat amaliy ko’nikmalar, balki kasbiy yo’nalish, muammoli fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni ham shakllantiradi. Uni zamonaviy talablarga javob beradigan texnik va metodik asosda tashkil etish, davlat siyosati doirasidagi yondashuvlar asosida yangilash zarur.

Muammolarni tizimli yondashuv orqali hal qilish texnologik ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yildagi PQ–5252 sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi PF–5712-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yildagi 289-sonli qarori.
4. Xalq ta'limi vazirligining 2023 yildagi texnologiya faniga oid o'quv dasturi.
5. Dewey, J. (1916). "Democracy and Education." New York: Macmillan.
6. Raximova, D. (2022). "Texnologiya ta'limida innovatsiyalar." – TDPU Ilmiy jurnali.

